



## TA'LIMDA JARAYONIDA OPTIMALLIKNING AHAMIYATI

**Davronov Pirnazar Ziyatovich**

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga  
o'rgatish milliy markazi professori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10791395>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-mart 2024 yil

Ma'qullandi: 04-mart 2024 yil

Nashr qilindi: 07-mart 2024 yil

### KEY WORDS

*optimallik, muamo, ta'lim, maktab, guruh, o'qituvch, o'quvchi, dars, bilim, qobiliyat, mahorat, ko'nikma, malaka.*

### ABSTRACT

*Maqolada "Muammoga asoslangan ta'lim metodikasi" asosida o'qitishda opimallikka erishish metodikasi bayon qilingan.*

O'quvchilarga chuqur nazariy bilim, malaka va amaliy ko'nikmalar berishga hamda qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayonga maktab ta'limi deyiladi.

Ushbu ta'rif mazmunidan ko'rinadiki, maktab fan o'qituvchisining asosiy vazifasi sinfdagi har bir o'quvchida to'rtta darajani oshirib berishdan iborat:

- 1) nazariy bilimlar bilan yetarli darajada qurollantirish;
- 2) qobiliyatlarini rivojlantirish;
- 3) ko'nikmalarini rivojlantirish;
- 4) malakalarini rivijlantirish.

Ixtiyoriy o'lchovli fazo elementlarining inson ongidagi inikosi (tasvirlari, grafiklari)ga bilim deyiladi.

O'quvchining o'zlashtirgan bilimlari va tajribalari asosida biror muayyan amaliy harakatni bajara olish faoliyatiga ko'nikma deyiladi.

Biror faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun kerak bo'ladigan bilimlarni o'zlashtirish dinamikasidagi farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatga qobiliyat deyiladi.

Orttirilgan bilim. qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajalarining, biror muayyan amaliy harakatni avtomatik bajara olish faoliyatidagi uyg'unlikka malaka deyiladi

Ta'limda optimallik deganda o'qituvchining kam kuch, kam vaqt va kam mablag' sarflab, eng yuqori natijadoprlikka erishishi tushuniladi. Ta'limda optimallikka erishish uchun bugungi kunda urfga aylangan, darslarda ko'proq axborot berib o'qitishga asoslangan ta'limdan voz kechish kerak.

Fikrimizning to'g'riligiga misol keltiramiz: malaka oshirishga kelgan pedagoglarga bir yil davomida "Muloqot – arabcha so'z bo'lib, suhbatlashuv, shaxslararo aloqa va o'aro fikr almashuv ma'nosini bildiradi" axborotini berib, uni so'zma-so'z takrorlashlarini so'radik. Natija nol. Mazkur gapni 3 marta birgalikda xor ovozda takrorlaganimizdan so'ng, natija 90% atrofida bo'ldi. Xor ovozda takrorlashning uchinchisida o'qituvchi ishtirok etmaydi. Ushbu tajribadan so'ng, ayrim o'qituvchilar: "Bir marta ma'mumot berib, o'uvchilardan uy vazifasini bayon qilib berishlarini so'raymiz. O'quvchilarga ham oson emas ekan"-degan fikr bildirishdi.

Haqiqatan, odatda dars o'tayotgan o'qituvchi, mavzuga doir bitta ma'lumotni bir marta aytadi. Shuning uchun ta'limda natijadorlik yomon ahvolda. Buni keyingi ikki yildagi oily o'quv yurtlarga kirish uchun hujjat topshirgan abituriyentlarning test natijalari ham ko'rsatib turibdi. Ulardan 51,6% ning bahosi ikkiga ham yetmayapti. Ushbu ahvol, maktablardagi har bir sinf o'uvchilarining yarmidan ko'pining bahosi DTS talablariga javob bermayotganligini ko'rsatadi.

O'qitishda natijadorlikka erishishning, eksperimental tarzda isbotlangan, "Muammoga asoslangan ta'lim metodikasi"ni bayon qilamiz.

Hali yechilmagan, yechilish usuli ham noma'lum bo'lgan masalaga muammo deyiladi.

Darslarda muammoli vaziyatlarni hosil qilib o'qitishga, muammoli ta'lim deyiladi.

Muammoga asoslangan ta'limning uchta darajasi mavjud:

- 1) muammoni o'qituvchi qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan hamkorlikda topadi;
- 2) muammo o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida qo'iladi va uning yechimi o'quvchilar tomonidan mustaqil topiladi;
- 3) muammoni o'qituvchining o'zi qo'yadi va uning yechimini ham mustaqil topadi.

Tajribamiz muammoga asoslangan ta'lim metodikasini, o'quvchilar kichik guruhlarida amaliyotga qo'llash qulay ekanligini ko'rsatdi.

Agar sinfdagi o'quvchilar soni 25 nafar bo'lsa, har biri 5 nafar o'quvchilardan tashkil topgan 5 ta kichik guruhlar tashkil etiladi. O'quvchilar kichik guruhlarini shakllantirishga doir ko'plab tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Endi maktablarda "Muammoga asoslangan ta'lim metodikasi" bo'yicha o'tkazilgan eksperimental ishlarimiz bayoniga o'tamiz:

Pastdarg'om tumanidagi 27-umumiy o'rta ta'lim maktabi gyografiya fani o'qituvchisi Rohatoy Hakimova tajribasi: 2020-2021 – o'quv yilida 5"A" sinfdagi tajriba qo'yildi.

O'qituvchi sinf o'uvchilarining tayyorgarlik darajasini hamda dars vaqtining 45 minut ekanligini e'tiborga olgan holda, o'rganiladigan yangi mavzuning har bir abzasidan bittadan savol tuzib keladi. O'quvchilarning xotirasini kuchaytirish maqsadida birinchi abzasning savoli o'qituvchi tomonidan tushunarli qilib aytiladi va o'quvchilarga takrorlatildi. O'qituvchi birinchi abzasni o'qiydi va o'quvchilari bilan hamkorlikda qo'yilgan savolga javob topishadi.

Navbatdagi abzaslarning savollari ham navbat bilan o'qituvchi tomonidan o'qilabi, biroq abzaslar o'quvchilar tomonidan sinfdoshlari tushunadigan darajada o'qiladi. Ushbu talab, o'uvchilarning asta-sekin ravon o'qishlarini ta'minlaydi, nutqlarini rivojlantiriladi.

Muammoga asoslangan ta'limning bayon qilingan birinchi darajasiga o'quvchilarning moslashishlari uchun 1-1,5 oy vaqt talab etiladi. Ushbu muddatda o'quvchilarda muammoga asoslangan ta'lim yunalishida yaxshigina moslashish va rivojlanish kuzatiladi.

Muammoga asoslangan ta'lim ikkinchi bosqichining dastlabki 2 -3 darsida, navbatdagi yangi darsda o'ganiladigan mavzuning abzaslari bo'yicha o'qituvchi savollar tuzib keladi va ularga mustaqil javob topib kelishni o'quvchilariga uyga vazifa qilib beradi.

Shuningdek, bu bosqichda, o'quvchilarga o'quv materialining abzaslarini o'qib-o'rganib, ularning mazmunlaridan kelib chiqqan holda savollar tuzish hamda ularga asosli javoblar topish mashqlari doimiy amalga oshiriladi. Ushbu metodika, har bir abzas, jumladan yaxlit mavzu mazmunining o'quvchilar tomonidan natijador o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Ikkinchi bosqich metodikalarining amaliyotga tatbiqi, ya'ni o'quvchilarning moslashishi uchin kamida 1,5-2 oy talab etiladi.

Muammoga asoslangan ta'limning oxirgi uchinchi bosqichida, o'qituvchi keying yangi dars mavzusi abzaslari bo'yicha uyda savollar tuzib, ularga topib kelgan javoblari asosida sheriklariga o'rgatishni yo'lga qo'yadi. O'quvchilar abzaslar bo'yicha savollar tuzush va ularga javoblar topish jarayonida, o'quv materialini ongli, natijador o'zlashtirganliklarini o'zlari sezmay ham qolishadi.

Sinfda "Boshqalarga bir marta o'rgatish, o'zimning mustaqil uch marta o'rganishimga teng" shiori hukum suradi.

Muammoga asoslangan o'qitish metodikasining uchunchi bosqichi, o'quvchilar maktabni tamomlagunlaricha doimiy bo'ladi.

Muammoga asoslangan o'qitishni amalga oshirgan gyografiya fani o'qituvchisi Rohatoy Hakimovaning e'tiroflari:

1) kichik guruhlarda ishlanganda shovqin bo'ladi va maktab ma'muriyatining e'tiroziga olib keladi;

Yechimi: kichik guruhlarning bir-birlariga xalal bermasdan ishlashlari yo'lga qo'iladi.

2) sinfdagi o'quvchilarning individual xususiyatlari har xil, ularga mavzuni yetkazib berish oson emas. Shuning uchun oldin darslarimga juda katta bosim bilan kirar edim. Muammoga asoslangan ta'lim metodikasidan foydalanayotganimdan buyon jonim rohatda;

3) bir boshdan, ko'p bosh yaxshi ekan. O'quvchilarim yangi dars mavzusini nafaqat bir-birlariga o'rgatayapti, hatto mening o'zim ham gyografiyadan bilmaganlarimni bilib olayapman. Sababi, o'quvchilar yangi mavzuga doir savollarga javoblarni faqatgina darslikdan emas, balki itirnetdan ham topib kelishadi. Albatta men ulardan ko'p hollarda behabar bo'laman.

4) hammamizga ma'lum oilalarda bolalar, yoshiga mos yumushlarni bajarishib, katta yoshdagi insonlarning qo'lidani ishini olishadi. Ularni xalqimizda bitta nom bilan "Dastyor" atashadi. Gyografiya fanimni o'qitishda o'quvchilarim dastyorga aylantirdim. Darsga kirishimdagi oldingi bosim yo'q, o'qivchilarim yuz foiz hamkorlikda ishlashadi, fikr bildirishadi, hamma faol, mening jonim rohatda, maktab jamoasi, o'quvchilarim ota-onalari va elimning e'tirofiga sazavor bo'ldim.

Bundan tashqari, "Muammoga asoslangan ta'lim metodikasi" va "O'quvchilar kichik guruhlarida ishlash"ga doir eksperimental ishlar 2021- va 2022 -yillarda Pastdarg'om tumaniga qarashli 128-umumiy o'rta ta'lim maktabida, 2023-yilda Samarqand shahar Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 19- umumiy o'rta ta'lim maktabida olib borildi.

19- umumiy o'rta ta'lim maktabida 2023-yilning fevral - may oylarida 8"A" sinfda Maftuna Qayumovaning "Ona tili va adabiyoti" darslarida olib borilgan eksperimental ishlarimiz natijasida, o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganib kelingan yangi dars mavzusi o'zbek va ingliz tillarida bayon qilib berildi. Ushbu metodikaga qiziqib qolgan biologiya fani o'qituvchisi Matluba Baxridinova "Ustoz, o'quvchilarimiz shaharda yashashganligi uchun rus tilini adabiy emas, ko'roq ko'cha tilida gapirishadi. Ularni rus adabiy tilida gapirishlariga erishish uchun darslarni rus tilida gapirib berishlarini ham tashkil etaylik deb qoldi.

Men sinf o'quvchilaridan, yangi darsni mustaqil o'rganib, uni o'zbek va ingliz tillarida bayon qilib berayapsizlar, endi ularga qo'shimcha rus tilini ham qo'shsak, sizlarga qiyin bo'lib ketmaydimi,-deb so'radim. O'quvchilar bir ovozdan mavzuni rus tilida bayon qilishni ham qabul qilishdi.

2023-2024 - o'quv yili 19-oktabrda 9"A" bo'lgan eksperimental sinfga emas, balki Matluba Baxridinova dars o'tadigan 7"A" sinfga kirib, "Umurtqali hayvonlarning xilma-xilligi. Qushlar, Sutemizuvchilar" mavzusini barcha o'quvchilarning uch tilda bayon qilishayotganiga guvoh bo'ldim. O'quvchilardan o'zim matematik bo'lishimga qaramasdan, biologiyadan ko'p bilimlarni o'rgandim. Bunga butun sinf o'quvchilari tomonidan bitta bilimning uch tilda ko'p martalab takrorlanishi sabab bo'ldi.

Matluba Baxridinovaning e'tirof etishicha fan o'qituvchilariaro, hamda o'quvchilar bilan o'qituvchilararo muloqotlar ko'chaygan. Boisi, o'quvchilar kitobdan va intirnetdan topaolmagan ma'lumotlarni ingliz va rus tili o'qituvchilaridan so'rab bilib olishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, maktab ta'limida optimallikka, natijadorlikka erishishning muhim omillaridan biri, muammoga asoslangan ta'lim metodikasi asosida, oquvchilarni yangi dars mavzularini mustaqil tarzda o'rganib sinfdoshlariga o'rgatishni tashkil qilishdan iborat ekan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilgan eksperimental ishlarimiz jarayonida, o'qituvchilarga yangi metodikalar asosida dars o'tish majburiy qilib qo'yishga yunalishidagi davlat siyoyatining yetishmayotganligiga doimiy muhtojlik sezilib turildi. Bu borada qat'iy davlat siyosati bo'lmas ekan, avvalo ko'pchilik maktablar ma'muriyatlari, qolaversa o'qituvchilar, o'zlari tarixan o'rganib qolgan eski o'qitish usullaridan voz kechib, ta'limga zamonaviy metodikalarni tatbiq etgan holda o'qitishga o'tishmaydi. Agar shunday davlat siyosati o'rnatilsa, o'qituvchilarning kasbiy malakalarini oshirishga, darslarni zamon

talablariga muvofiq o'tishga munosabatlari keskin o'zgargan, alal oqibat ta'limda mamlakat kutayotgan natijadorlik ta'minlangan bo'lar edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108-son Farmoni. – QHMMB: 06/20/6108/1483-son, 07.11.2020-yil.
3. Ibragimov A.A. Malaka oshirish ta'limida muammoga asoslangan o'qitish texnologiyasini qo'llash. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 46 bet.
4. Fayzullayeva G.Sh. O'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi va uzluksiz kasbiy rivojlanishi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 84 bet.
5. Лернер И.Я. Проблемное обучение. - М., 2004. – 131 с.
6. Davronov P.Z. Methods Of Forming Small Groups Of Students In Education. Journal of Positive School Psychology 2022. Vol. 6. No. 8, 4161-4166. [http:// Journalppw.com](http://Journalppw.com).
7. Davronova F. Digital technologies in studying english at university: traditions and innovations. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 8(3), 97-100. (2022).
8. Davronova F. Ways of forming digital literacy in the context of teaching english. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(3), 55-57. (2022).